

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-sonli qaroriga asosan "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomga muvofiq universitetda tyutorlik faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va ushbu jarayonning oshkoraligini ta'minlash maqsadida tyutorlarni ishga qabul qilish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Ishga qabul qilish jarayonida **oshkoralik, adolatlilik va meritokratiya tamoyillariga** qat'iy amal qilinadi.

Tyutorlik lavozimiga nomzodlarni tanlash **ochiq e'lonlar** asosida amalga oshiriladi. Nomzodlar tomonidan topshirilgan hujjatlar maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, quyidagi **asosiy mezonlarga** ko'ra baholanadi:

- Oliy ma'lumotga ega bo'lish (**bakalavr**);
- Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'lim berish huquqidan mahrum etilmagan bo'lish;
- Pedagogik-psixologik bilim va tajribaga ega bo'lish;
- Talabalar bilan ishlashda mas'uliyat, kommunikativlik va tashabbuskorlik ko'nikmalariga ega bo'lish;
- universitet ichki tartib-qoidalari va ta'lim tizimiga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;
- Nomzod namunali shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi, xususan:
 - **madaniyatli, mas'uliyatli, kirishuvchan, vatanparvar, tashabbuskor.**
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va yoshlar bilan individual ishlash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;
- Ta'lim sohasidagi qonunchilik, standartlar va me'yoriy hujjatlarni bilishi;
- Axborotni tahlil qilish, umumlashtirish, qaror qabul qilish, o'z fikrini yozma va og'zaki aniq bayon eta olish;

Nomzodlar suhbatdan o'tganidan so'ng, komissiya tomonidan ularning kasbiy va shaxsiy sifatlari kompleks baholanadi va natijalari **ochiq tartibda e'lon qilinadi**.

Hozirgi kunda universitetda jami **104 nafar tyutor** faoliyat yuritmoqda. Ularning barchasi yuqoridagi mezonlar asosida tanlab olingan hamda o'z faoliyatini belgilangan normativ hujjatlar asosida olib bormoqda.

Shuningdek, hozirgi paytda **tyutorlik lavozimlariga vakant ish o'rinlari mavjud emas**, barcha fakultet va bo'limlar tyutorlar bilan to'liq ta'minlangan.